

MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYAT ORGANLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING YURIDIK TABIATI

MIRZAYUSUPOV SHOXRUH
IIV SURXONDARYO AKADEMIK
LITSEYI HUQUQSHUNOSLIK
FANI O'QITUVCHISI

Annatotsiya. O'zbekiston Respublikasida Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining tashkiliy asosiy prinsiplari, vazifalari va o'ziga xos jihatlarini ochib berishga hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish.

Kalit so'zlar. Mahalliy boshqaruv, Mahalliy boshqaruv va o'zini o'zi boshqaruv, Mahalliy ijro hokimiyati, Davlatning hududiy tuzilishi va o'zini o'zi boshqaruv

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mahalliy miqyosda boshqaruvni tashkil etishga o'ziga xos tarzda yondashilgan, MDH va boshqa sobiq ittifoqdosh respubliklar konstitutsiyalaridan farq qilib, O'zbekiston Konstitutsiyasida mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimi alohida, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining tizimi alohida belgilandi. O'zbekistondan boshqa davlatlarning konstitutsiyalarida mahalliy davlat hokimiyati degan tushuncha ishlatilmagan. Jumladan, Belorussiya Konstitutsiyasida "Mahalliy boshqaruv va o'zini o'zi boshqaruv", Qozog'iston Konstitutsiyasida "Davlatning hududiy tuzilishi va o'zini o'zi boshqaruv", Qirg'iziston, Rossiya va Estoniya Konstitutsiyalarida "Mahalliy boshqaruv", Turkmaniston Konstitutsiyasida "Mahalliy ijro hokimiyati" alohida bobda, "Mahalliy boshqaruv" alohida bobda berilgan. Demak, mamlakatimiz mazkur sohada boshqaruvning o'ziga xos yo'lini tanlagan.

Mahalliy davlat hokimiyat organlari faoliyatini tashkil etish fuqarolik jamiyati institutlarini o'zini kattadir. Bu borada siyosiy partiyalar alohida o'zini tutadi.

M.A.Lipchanskayaning fikricha, mahalliy davlat hokimiyat organlari faoliyatini tashkil etishda siyosiy partiyalar muhim rol oʻynaydi. Jumladan, normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqishda ishtirok etadi¹.

V.Meytusning fikricha, mazkur institut mahalliy hokimiyat organlari kabi demokratik tizimning muhim elementi hisoblanadi².

Ayrim mamlakatlarda mahalliy hokimiyat organlarining faoliyati milliy saylov jarayoni bilan bevosita bogʻliq. Jumladan, Isroilda mahalliy va markaziy hokimiyat organlari oʻrtasidagi munosabatlarining xarakteri aynan saylov natijalari bilan bogʻliq holda koʻrib chiqiladi³.

Bugungi kunda xorijiy davlatlarda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalarning sonini tahlil qiladigan boʻlsak, ular Avstriyada 7 ta, Belgiyada 13 ta, Braziliyada 34 ta, Kanadada 6 ta, Yaponiyada 13 ta, Qozogʻistonda 7 ta, Moldovada 26 ta, Rossiyada 64 ta partiya roʻyxatdan oʻtgan boʻlsa-da, faol partiyalar soni 6 ta, Shvesariyada 7 ta, Tojikistonda 7 ta, Turkiyada 83 ta partiya roʻyxatdan oʻtgan boʻlsa-da, faol partiyalar soni 13 ta, AQShda 4 tani tashkil etadi⁴.

Mamlakatimizda “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish toʻgʻrisida”gi Konstitutsiyaviy qonun davlat va jamiyat hayotida, davlat qurilishida muhim islohotlar davrini boshlab berdi. Ushbu qonun asosida muhim islohotlarni amalga oshirishga asos boʻldi. Viloyat va Toshkent shahar hokimi nomzodlari Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tegishli xalq deputatlari Kengashlaridagi partiya guruhlarining har biri bilan maslahatlashuvlar oʻtkazilganidan soʻng xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etilishi belgilandi. Tegishli xalq deputatlari Kengashi

¹ Lipchanskaya M.A., Volkova M.S. Printsipy i osnovy pravovogo regulirovaniya gosudarstvenno-partiynogo vzaimodeystviya v sovremennoy Rossii // Vestnik Saratovskoy gosudarstvennoy yuridicheskoy akademii. 2015. – № 1 (102). –S.147.

² Meytus V., Meytus V. Politicheskaya partiya: strategiya i upravlenie. □ K.: Elga, Nika-Sentr, 2004. – S.9.

³ Vinarski-Peretz, H., & Kidron, A. The shadow dance of political climate: Engagement in political behavior in local government authorities // European Management Journal. 2018. □P.1.

⁴ <https://www.cia.gov/library/publications/the-world-factbook/fields/315.html> (maʼlumot AQShning milliy baza materiallari tahlili asosida berilgan).

deputatlari umumiy sonining ko'pchilik ovozini olgan viloyat va Toshkent shahar hokimi nomzodi tasdiqlangan hisoblanadi⁵.

E.S.Shugrina mahalliy davlat hokimiyat organlarining asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni ta'kidlaydi:

Birinchidan, mahalliy davlat hokimiyati – konstitutsiya doirasida belgilangan davlat xokimiyati hisoblanadi;

Ikkinchidan, mahalliy miqyosda davlat xokimiyatini amalga oshiradi;

Uchinchidan, mahalliy davlat hokimiyat organlari budjeti, munitsipial shaklda mustaqil moddiy va moliyaviy asosga ega⁶.

A.Yangibaevning fikricha, siyosiy partiyalar faoliyati "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonun va boshqa qonun hujjatlari qabul qilinganidan so'ng huquqiy zamin kasb etdi. Bu siyosiy partiyalarning huquqiy maqomida jiddiy o'zgarishlar yuz berishiga sabab bo'ldi⁷.

Xorijiy mamlakatlarda siyosiy partiyalarning o'rnini ularni davlat hokimiyatini shakllantirishdagi o'rnini bilan izohlanadi. Tarixiy nuqtai nazardan partiyalarsiz siyosiy hokimiyatni shakllantirishning biron-bir vositasi o'ylab topilmagan. Partiyalarning eng muhim funksiyalaridan biri o'z a'zolari va ijtimoiy qatlamning manfaatlarini ifodalash, balki ularning o'z manfaatlarini anglash darajasiga erishishiga ham ko'maklashishdir.

Hali demokratik jamiyatda yashab ko'rmagan, uzoq davrlar totalitar tuzum zulmi ostida bo'lgan xalqlarda milliy, iqtisodiy va siyosiy manfaatlar namoyon bo'lishi mumkin, lekin tashkillashgan siyosiy ijtimoiylashuv jarayonlarisiz ularning siyosiy manfaatlarining shakllanishi qiyin kechadi. Buning asosiy sababi shundaki, insonning siyosiy ongi va qarashlari faqat uning guruhiy tashkilotlardagi faol ishtiroki natijasi o'laroq shakllanishi mumkin. Binobarin, siyosiy ongi yetarli darajada shakllanmagan

⁵ O'zbekiston Respublikasining 2007 yil 11 apreldagi "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007 y., 15-son, 151-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi www.lex.uz, 05.09.2019 y., 03/19/563/3685-son.

⁶ Shugrina Ye.S. Munitsipalnoe pravo. M.: Prospekt. 2004. S. 4-5.

⁷ Yangibaev A. Siyosiy partiyalarning davlat hokimiyati vakillik organlarini shakllantirishda va ularning faoliyatida ishtirok etishi // Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. avtoref. T., 2019. B.11.

insonda biron-bir partiyada ishtirok etish uchun ehtiyojning o'zi yo'q. Ko'rinib turibdiki, mamlakatdagi partiyalarning boshlang'ich tashkilotlari yoki vakillari fuqarolarning yashash va ishlash joylarida faoliyat ko'rsatmasa, saylovchilar dunyoqarashiga ta'sir eta olmasa, partiyalar o'z vakolatlarini hayotga tatbiq eta olmaydilar.

2014 yilda bo'lib o'tgan saylov natijalari bo'yicha tuman, shahar, viloyat, Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi deputatlarining 2250 nafari O'zLiDeP, 2300 nafari O'zXDP, 1077 tasi Milliy tiklanish DP va 431 tasi Adolat SDP vakillari hisoblanadi⁸.

2017 yil 24 dekabr kuni Toshkent shahar xalq deputatlari tuman Kengashlariga o'tkazilgan saylov natijalariga ko'ra siyosiy partiyalardan jami 278 (84,2 foiz) nafar deputat va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan esa 52 (15,8 foiz) nafar nomzod deputatlik o'rinlarini egallagan⁹.

Ayni paytda davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoev alohida ta'kidlab o'tganlaridek, siyosiy partiyalar hokimiyat uchun kurashish huquqiga ega. Lekin shunga qaramasdan, ular o'rtasida raqobat, fikrlar, pozitsiyalar xilma-xilligi mutlaqo sezilmayapti¹⁰.

Mahalliy davlat hokimiyat organlari faoliyatini tashkil etish siyosiy partiyalar faoliyati bilan bog'liq bo'lib, Zamonaviy rus munitsipalitetining asoschilaridan biri V.I. Fadeev mahalliy hokimiyat organlari faoliyatini tashkil etish alohida protsessual tartib bo'lib, vakillik va ijro organi nuqtai nazardan alohida xususiyatga ega hisoblanadi¹¹.

Sh.Mamadaliyev partiyalarning ommaviylashmaganligi, saylovchilar orasida yetarli darajada obro'-e'tibor qozonmayotganligining asosiy sabablari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tadi:

⁸ <https://uzanalytics.com/siyosat/3225/>.

⁹ Yangibaev A. Siyosiy partiyalarning davlat hokimiyati vakillik organlarini shakllantirishda va ularning faoliyatida ishtirok etishi // Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. avtoref. T., 2019. B.15.

¹⁰ Mirziyoev Sh.M. Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo'lishi kerak // Xalq so'zi. – 2017. 13 iyul.

¹¹ Fadeev V.I. Munitsipalnoe pravo Rossiyskoy Federatsii: problemy stanovleniya i razvitiya: Avtoref. dis. d-ra. yurid. nauk. M., 1994. S. 23.

- 1) partiyalar siyosiy mafkurasining yetarli darajada shakllanmaganligi;
- 2) partiyalar matbuotidagi siyosiy qiyofaning noaniqligi, respublika va jahonda sodir boqalayotgan voqealarning Oqzbekiston nuqtai nazaridan yetarli darajada sharhlanmayotganligi, partiyalarning fuqarolar siyosiy madaniyatini shakllantirishga kam eqtibor qaratayotganligi;
- 3) Oqzbekiston fuqarolari oqlarining siyosiy huquqlarini yetarlicha anglab yetmaganliklari, siyosiy faollikning yetishmasligi; 4) partiya, fuqarolarning siyosiy huquqlarini amalga oshirishga koqmak beruvchi fanning zamon talab va ehtiyojlaridan orqada qolayotganligi va boshqalar”¹².

Yuqoridagi muammolarni hal qilishda siyosiy partiyalar faoliyatini kuchaytirish va mahalliy vakillik organlarni faoliyatini tashkil etishda ishtirokini tubdan takomillashtirish lozim.

Shunday qilib, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan beshta siyosiy partiya oqrtasida kechayotgan raqobat hamda ularning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishdagi ishtiroki bilan bogqliq faoliyatini tahlil qilish shuni koqrsatadiki, bugungi kunda tez surqatlarda rivojlanib borayotgan ijtimoiy voqelik bilan hamqadam, zarur boqlsa strategik istiqbolni koqra olish va shu asosda oqlarining dasturiy vazifalarini belgilashda siyosiy partiyalar tomonidan hali koqp ishlarni amalga oshirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lipchanskaya M.A., Volkova M.S. Prinsipy i osnovy pravovogo regulirovaniya gosudarstvenno-partiynogo vzaimodeystviya v sovremennoy Rossii // Vestnik Saratovskoy gosudarstvennoy yuridicheskoy akademii. 2015. – № 1 (102). –S.147.
2. Meytus V., Meytus V. Politicheskaya partiya: strategiya i upravlenie. q K.: Elga, Nika-Sentr, 2004. – S.9.

¹² Mamadaliev Sh. Oqzbekiston siyosiy partiyalari: shakllanish jarayonlari va rivojlanish istiqbollari. qT.: OqzR IIV Akademiyasi, 2004. q B.27.

3. Vinarski-Peretz, H., & Kidron, A. The shadow dance of political climate: Engagement in political behavior in local government authorities // *European Management Journal*. 2018. □P.1.
4. <https://www.cia.gov/library/publications/the-world-factbook/fields/315.html> (ma□lumot AQShning milliy baza materiallari tahlili asosida berilgan).
5. O□zbekiston Respublikasining 2007 yil 11 apreldagi □Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to□g□risida□gi Konstitutsiyaviy qonuni // O□zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to□plami, 2007 y., 15-son, 151-modda; Qonun hujjatlari ma□lumotlari milliy bazasi □ www.lex.uz, 05.09.2019 y., 03/19/563/3685-son.
6. Shugrina Ye.S. *Munitsipalnoe pravo*. M.: Prospekt. 2004. S. 4□5.
7. Yangibaev A. Siyosiy partiyalarning davlat hokimiyati vakillik organlarini shakllantirishda va ularning faoliyatida ishtirok etishi // *Yuridik fanlari bo□yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. avtoref.* □T., 2019. □ B.11.
8. <https://uzanalytics.com/siyosat/3225/>.
9. Yangibaev A. Siyosiy partiyalarning davlat hokimiyati vakillik organlarini shakllantirishda va ularning faoliyatida ishtirok etishi // *Yuridik fanlar bo□yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. avtoref.* □T., 2019. □ B.15.
10. Mirziyoev Sh.M. Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo□lishi kerak // *Xalq so□zi*. □ 2017. 13 iyul.
11. Fadeev V.I. *Munitsipalnoe pravo Rossiyskoy Federatsii: problemy stanovleniya i razvitiya*: Avtoref. dis. d-ra. yurid. nauk. M., 1994. S. 23.
12. Mamadaliev Sh. O□zbekiston siyosiy partiyalari: shakllanish jarayonlari va rivojlanish istiqbollari. –T.: O□zR IIV Akademiyasi, 2004. – B.27.